

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING MA'NAVIY-MA'RIFIY
FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2018-yil 4-avgustdagি PQ-3898-son **qaroriga** muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari, shuningdek ularning oila a'zolari, mamlakatimiz yoshlarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga ko'maklashish, ularning mazmunli hordiq olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarkibida Ma'naviyat va ma'rifat markazini (keyingi o'rnlarda — Markaz) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

harbiy xizmatchilar va xodimlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini, ma'naviy saviyasini va intellektual salohiyatini yuksaltirishni ta'minlash, ularda mamlakatimizning qadimiy va boy madaniyati, azaliy qadriyatları, udumlari va an'analariga asoslangan keng dunyoqarashni shakllantirish;

harbiy xizmatchilar ongiga Vatan himoyasi har bir fuqaroning sharaflı va muqaddas burchi ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkillashtirish;

harbiy xizmatchilar, xodimlar, ishchi va xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarining madaniy hordiq olishlarini ta'minlashga ko'maklashish;

yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kamol topishi bo'yicha qiziqishlarini ro'yobga chiqarish, shaxsiy tarkib qalbida vatanparvarlik, burchga sadoqat, Vatanimiz kelajagi uchun daxldorlik hissini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samarali usullarini joriy etishga ko'maklashish;

san'at, musiqa va qo'shiqchilik sohasida yosh ijodkorlarning samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuzilmasi **1-lovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi ofitserlar tarkibining harbiy unvonlari va lavozimlar bo'yicha tarif razryadlari ro'yxati **2-lovaga** muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoniga Markazning tuzilmasiga harbiy xizmatchilar, ishchi va xizmatchilarning umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. Belgilansinki:

Markaz O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga qo'shimcha 63 ta shtat birligi (ofitserlar — 2, serjant va oddiy askar tarkibidagi shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar — 6, ishchi va xizmatchilar — 55 nafar) ajratish hisobidan tashkil etiladi;

Markaz faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Markaz to'garaklari xodimlarining shtat birliklari ushbu to'garaklar tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan tushadigan mablag'lar hisobiga saqlanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining yuridik shaxs tashkil etmagan holda Markazning budgetdan tashqari jamg'armasini (keyingi o'rnlarda — Jamg'arma) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar (Markazning to'garaklari tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan tushadigan mablag'lar bundan mustasno);

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;
qonun hujjatlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Belgilansinki, Jamg'armaning:

75 foizdan kam bo'limgan mablag'lari — Markazning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga;

25 foizdan ko'p bo'limgan mablag'lari — Markazning harbiy xizmatchilarini, ishchi va xizmatchilarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asoslangan hisob-kitoblari asosida Markazning samarali faoliyatini tashkil etish uchun zarur mablag'lar ajratsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

ikki oy muddatda Markazning ustavini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;
Markazning moddiy-texnik bazasini shakllantirish choralarini ko'rsin;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan Markazda faoliyat olib borish uchun kelgan mutaxassislarni xizmat uylari bilan ta'minlash yuzasidan takliflar kirmsin;

bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kirmsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni B.X. Tashmatov zimmasiga yuklansin.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 7-fevral,
PQ-4163-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldag'i PQ-4163-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining

TUZILMASI



Jami	ofitserlar	serjant va oddiy askar tarkibidagi ShAHX	Ishchi va xizmatchilar
63	2	6	55

Izoh:

* — pullik xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar hisobidan saqlanadi.

Qavs ichida ko‘rsatilgan:

1-raqam — ofitserlar;

2-raqam — serjant va oddiy askar tarkibidagi shartnomaga asosidagi harbiy xizmatchilar (ShAHX);

3-raqam — Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldaggi PQ-4163-son qaroriga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi ofitserlar tarkibining harbiy unvonlari va lavozimlar bo‘yicha tarif razryadlari

RO‘YXATI

T/r	Lavozim nomi	Harbiy unvon	Tarif razryadi
1.	Ma’naviyat va ma’rifat markazi boslig‘i	polkovnik	19,2
2.	Markaz boslig‘ining o‘rinbosari — ashula va raqs ansambl boslig‘i	podpolkovnik	18,3